



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 27-fevral, № 40 (9211)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



SURXONDARYO YANGILANISH VA YUKSALISH SARI DADIL QADAM TASHLAMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-fevral kuni ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlari bilan tanishish uchun Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurdi.



Davlatimiz rahbari amaliy safarini an'anaga ko'ra, Hakim Termiziy maqbarasi ziyoratidan boshladi. Qur'on tilovat etilib, xalqimizga, yurtimizga tinchlik-farovonlik tilab duo qilindi.

Ulamolar bilan bo'lib o'tgan suhbatda islom dini rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma, vatandoshimiz Hakim Termiziyning ma'naviy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish hamda yurtdoshlarimiz va xalqaro jamoatchilik o'rtasida keng targ'ib qilish haqida so'z yuritildi.

Shuningdek, muqaddas dinimizning ezigulik, insonparvarlik, mehr-shafqat kabi buyuk fazilatlari, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash hamda rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, ularning qalbidagi Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini yanada kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Keyingi yillarda ta'mirlanib, yanada obod va go'zal majmuaga aylangan ushbu tabarruk maskanda ziyoratchilar uchun barcha sharoit yaratildi. Atrof obodonlashtirilib, maqbarada ham katta hajmdagi ishlar bajarildi. Zamonaviy yoritqichlar, isitish va sovitish tizimlari o'rnatildi. Majmuada mikroiklim yaratish uchun to'rt mingdan ortiq 40 turdagi ko'p yillik manzarali daraxtlar, 20 mingdan ziyod mavsumiy anvoiy gullar ekilgan.

Islom ilmlarining tafsir, hadis, fiqh, kalom, islom falsafasi, tasavvuf tarixi, tasavvufiy qarashlar kabi sohalarida ko'plab asar yozgan mutafakkir

majmuasini obod saqlash, ziyoratchilar uchun qulayliklarni kengaytirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Termiz tumanidagi "Tomorqa maktabi"ga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari dastlab suv xo'jaligida mahalliyashtirilgan texnika va uskunalar taqdimoti bilan tanishdi.

Suv tejash texnologiyalari va zamonaviy irrigatsiya tizimlarini mahalliy sharoitda ishlab chiqarish orqali xarajatlarni kamaytirish, iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer va aholining talabini tezkor ta'minlash mumkinligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz bu yo'nalishga yanada ko'proq e'tibor qaratish, bunda ilmiy hamkorlikni kuchaytirish zarurligini qayd etdi.

"Tomorqa maktabi" aholini o'z tomorqalaridan samarali foydalanish, serdaromad ekin turlarini joriy etish, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash va qadoqlashning zamonaviy usullarini o'rgatishga ixtisoslashtirilgan. Muassasa banklarning moliyaviy ko'magida faoliyat yuritmoqda.

Eng muhimi, bu yerda ishsiz va kam ta'minlangan oilalarning barqaror daromad manbaiga ega bo'lishiga ko'maklashiladi. Mazkur jarayonda dehqonchilikning ilmiy asoslari, yuqori daromadli mahsulot yetishtirish texnologiyalari va zamonaviy

tomorqachilik usullari amaliy ravishda o'rgatilmoqda.

Innovatsion maktab Termiz, Muzrabot, Qiziriq, Bandixon, Angor va Jarqo'rg'on tumanlarini qamrab olgan bo'lib, uning tarkibida o'quv binosi, uch gektar issiqxona hamda uch gektar o'quv-tajriba maydoni mavjud.

Issiqxonada Surxondaryo sharoitiga moslashtirilgan banan, papayya, rozmarin, lavanda, limon, anjir, brokkoli, bulg'or qalampiri va boshqa ekinlar yetishtirilmoqda. Shuningdek, ko'chatchilik va gulchilik yo'lga qo'yilgan, tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilgan.

Maktabda Surxondaryo sharoitida bir yilda uch marta hosil olish amaliyoti o'qitilmoqda. O'quv jarayoniga olimlar, mutaxassislar va tajribali dehqonlar jalb etilgan.

Shu paytga qadar ishsiz va kambag'al oilalarning 1300 ga yaqin a'zolari maxsus kurslarni tugatib, o'z tomorqasi yoki ijara yerlaridan samarali foydalanish orqali o'zini o'zi band qilgan. Hokim yordamchilari har oyda 220 nafardan, yiliga 2700 nafargacha tomorqa va ijara yer egalarini o'qishga yo'naltirmoqda. Tinglovchilar uchun yo'llanma yoki vaucher tizimi orqali o'qish xarajatlari qoplab beriladi.

Kursda qatnashuvchilarga yuqori daromadli ekinlar ekish va bir sotix yerdan o'rtacha 10 – 15 million so'm daromad olish metodikasi amaliyotda

ko'rsatiladi. "Agrostar" kompaniyalari esa tinglovchilarni urug' va ko'chatlar bilan ta'minlab, yetishtirilgan mahsulotlarni xarid qilishni tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari maktabda tomorqadan uch marta hosil olish amaliyoti, sanoatlashgan bog'lar va suv tejovchi texnologiyalar taqdimoti bilan tanishdi. Meva-sabzavotlarni qayta ishlash va eksport qilish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar bilan muloqot qilib, qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratish, hudud uchun yangi bo'lgan o'simliklar, shu jumladan, sitrus va tropik mevalar yetishtirishni o'zlashtirish muhimligini ta'kidlandi.

Yaratib berilayotgan imkoniyatlardan, ajratilayotgan mablag'lardan oqilona foydalanayotgan vohada aholining to'kin, farovon yashashiga yangi-yangi g'oyalar asosida yondashilayotgani odamlarning daromadini oshirib, hududlarning kambag'allik darajasini pasaytirmoqda. Jumladan, bundan ikki yil avval viloyatning kambag'allik darajasi 10,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yil yakuni bilan bu ko'rsatkich 4,5 foizga tushdi. Bu yil vohaning kambag'allik darajasini 2,8 foizga tushirish mo'ljallanayotir.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Termiz shahrida To'polang suv ombori suvidan foydalanish hisobiga Surxondaryo viloyatida ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash loyihasining amaliy natijalarini ko'zdan kechirdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda suv xo'jaligi tizimini isloh qilish, irrigatsiya infratuzilmasini yangilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida tizimli ishlar bajarilmoqda.

Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ushbu 287 million dollarlik megaloyiha ham sohada erishilayotgan natijalardan biri sanaladi.

Mazkur tashabbus doirasida o'tgan yillar davomida katta hajmdagi qurilish, montaj ishlar amalga oshirildi. Zamonaviy mexanizmlarning yo'lga qo'yilishi natijasida bugun minerallarga boy ichimlik suvi viloyatning o'nta tuman va Termiz shahriga uzluksiz yetkazib berilyapti.

Surxondaryoda markazlashgan ichimlik suvi bilan qamrov sakkiz-to'qqiz yil oldin 47 foiz edi. Bugun ushbu raqam 67,5 foizgacha oshishiga erishildi. Natijada aholining suv ta'minotidagi holati nafaqat miqdor, balki sifat jihatdan ham sezilarli yaxshilandi.

Prezident bu kabi yirik energetik, texnologik va ijtimoiy samarador loyihalarni qo'llab-quvvatlash har jihatdan zarurligini ta'kidladi. Bunday tajribalarni kelgusida mamlakatning boshqa hududlarida ham qo'llash mumkinligiga e'tibor qaratdi.

Texnik jihatdan loyihaning katta yutug'i 246 kilometr magistral va ichki tarmoqning barpo etilishi bo'ldi. Muhimi, gidravlik hisoblar asosida bosimni nasossiz uzatish imkoniyati yaratildi. Bu nafaqat energiya sarfini keskin kamaytiradi, balki tizimning barqarorligini ta'minlaydi. Aynan shu innovatsion yondashuv tufayli Termiz shahri, Angor, Bandixon, Qiziriq, Sherobod va Muzrabot kabi tuman markazlariga suv elektr energiya sarfisi yetkazib berilyapti.

Mazkur tashabbus ortidan bugungi kunda 223 ta mahallada obihayot ta'minoti mustahkamlandi. Suvning qattiqlik darajasi esa ikki baravargacha kamaytirildi. Sifatning ortishi aholi salomatligi va maishiy jihozlar xizmat muddati uzayishida muhim omil hisoblanadi.

"Shimoliy" suv ishlab chiqarish inshootida tashkil etilgan geoaxborot markazi esa tizimning real vaqtda nazorat qilinishiga sharoit yaratdi. Bosim pastlashi, avariya holatlari, suv yo'qotish kabi masalalarni bir necha daqiqada aniqlash imkoniyati tug'ildi.

Suv ta'minoti yaxshilangani sababli hududlardagi yuzdan ortiq yer osti suv quduqlaridan foydalanishga ehtiyoj qolmadi. Bu ekologik yukni kamaytiradi.

Shuningdek, loyiha natijasida yiliga 18,4 million kilovatt-soat elektr energiyasi tejab qolinadi. Bu mablag' va resurs jihatdan 18,5 milliard so'm iqtisod qilinishini anglatadi. Iste'molchilarning billing tizimiga ulanishi esa suvni hisoblashda shaffoflikni oshirdi, qarzdorlikni kamaytirdi.

Yana bir muhim jihat, bu yerdagi 10 gektar maydonda 6418 kilovatt-soat quvvatidagi quyosh panellari o'rnatildi.

Davlatimiz rahbari shu yerda viloyatning gidroenergiya ko'rsatkichlari hamda sohada amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. Viloyatda hali yechilmagan suv ta'minoti masalalarini tezkor hal etish bo'yicha vazifalarni belgilab berdi. Xususan, eski nasos agregatlarini energiya tejamkor texnologiyalarga almashtirish, tarmoqlarni modernizatsiya qilish yuzasidan ko'rsatmalar berildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Jarqo'rg'on tumanida qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivini borib ko'rdi.

Mamlakatimizda aholi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish, zamonaviy va shinam turarjoylar barpo etish ishlari izchil kengaymoqda. Prezidentning 2021-yil 12-oktabrdagi Farmoniga muvofiq "Yangi O'zbekiston" massivlari qurilishi va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy shaharsozlik talablari asosida barpo etilayotgan shunday loyihalardan biri Surxondaryo viloyatining Jarqo'rg'on tumanida qad rostlamqda.

Cho'l hududini o'zlashtirish hisobiga bunyod etilayotgan massivning 50 gektarida 116 ta ko'p qavatli uy qurilishi rejalashtirilgan. Hozirgacha poliklinika, 180 o'rinni bog'cha, 330 o'rinni maktab va mahalla binosi foydalanishga topshirilib, 68 ta uydagi 1,5 mingta xonadonga aholi ko'chib kirdi.

Shuningdek, axborot texnologiyalari va ingliz tili o'quv markazi ish boshlagan, 7 ta mikromarkaz hamda 5 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyekti qurilgan. Ichimlik suvi, issiqlik tarmoqlari, 3 kilometrga yaqin gaz quvuri tortilib, 250 kilovattli transformator o'rnatilgan. 4,5 gektar yerga manzarali va mevali daraxtlar, dasht hududidagi 300 gektar maydonga esa saksovul o'simliklari ekilgan.

Kelgusida bu yerda yana 50 ga yaqin uylar qurilishi ko'zda tutilgan. Xususan, joriy yilda yana 14 ta (280 xonadonli) ko'p qavatli uy-joy, yangi yo'llar, istirohat bog'i qurish hamda ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilishi rejalashtirilgan.

Mamlakatimizda zamonaviy uy-joy qurilishiga qaratilayotgan yuksak e'tibor viloyatning urbanizatsiya darajasini 35,6 foizdan 36,2 foizga o'stirdi. Ayni paytda vohadagi 1 ming 722 ta ko'p qavatli uydagi 44 mingta xonadonda 160 mingdan ortiq kishilar istiqomat qilib kelmogda. 2018-yilgacha viloyatda 1 ming 240 dan ortiq ko'p qavatli uylar mavjud edi. Keyingi 9 yilda 481 ta osmono'par turarjoy binosi qurilib foydalanishga topshirildi. Uy-joy fondi 603 mingtaga yetib, aholining turarjoy bilan ta'minlanganlik darajasi 69 foizni tashkil etdi. Joriy yil yana 9 ming 500 xonadonli 172 ta ko'p qavatli uy qad rostlaydi.

Tashrif chog'ida Prezidentimiz massiv hududida faoliyat yuritayotgan "Yangi yoshlar" boshqaruv servis kompaniyasi ishi bilan tanishdi. Kompaniya tumandagi 161 ta ko'p qavatli uyga xizmat ko'rsatadi, shundan 54 tasi mazkur massivda joylashgan. Hududdagi ko'p qavatli uylar tomiga 5 – 15 kilovattli quyosh panellari o'rnatilgan.

Inklyuziv ta'lim har bir bolaning, jismoniy yoki aqliy holatidan qat'i nazar, maktabga borishi va sifatli ta'lim olishini ta'minlashni nazarda tutadi.

Davlatimiz rahbari massivdagi 66-maktabda yaratilgan shart-sharoitlar, xususan, nogironligi bo'lgan bolalar uchun tashkil etilgan imkoniyatlar bilan tanishdi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIYA PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 26-fevral kuni bo'lib o'tgan telefon orqali muloqotda Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anni tavallud kuni bilan samimiy tabrikladi.

Davlatimiz rahbari Turkiya yetakchisiga mustahkam sog'liq va farovonlik, davlatchilik faoliyatida katta muvaffaqiyatlar, qardosh turk xalqiga tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

Prezidentlar, shuningdek, butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyi bilan bir-birlarini dildan qutladilar.

O'zbekiston – Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini joriy yil yanvar oyida Anqara shahrida erishilgan oliy darajadagi kelishuvlarni amalga oshirish doirasida yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatlararo hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani mamnuuniyat bilan qayd etildi. Yaqinda bo'lib o'tgan Strategik hamkorlik kengashi yig'ilishining natijalari ikki tomonlama munosabatlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'targani ta'kidlandi.

Ishlab chiqilgan "yo'l xaritalari" asosida kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar, bo'lajak tadbirlar rejasini muhokama qildilar.

O'ZA.

Senat qo'mitasida

BOLA HUQUQLARINI TA'MINLASHGA E'TIBOR

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi, Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi hamda Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining qo'shma majlisi bo'lib o'tdi.

Unda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) ning 2025-yildagi faoliyati hamda Bola huquqlari bo'yicha vakil (Bolalar ombudsmani)ning bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari tomonidan rioya etilishi haqidagi ma'ruzalari muhokama markazida bo'ldi.

Senatorlar ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yo'nalishida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, shuningdek, qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish maqsadida Ombudsmanning davlat organlari va tashkilotlariga, ularning mansabdor shaxslariga yuborgan ariza va da'vo arizalari, taqdimnomalari hamda

tavsiyaviy xususiyatga ega xulosalarining ijrosini ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, 2025-yilda Ombudsman nomiga kelib tushgan jami murojaatlarning 7 558 tasi iqtisodiy, 6 729 tasi ijtimoiy, 4 255 tasi shaxsiy huquq va erkinliklar, 2 841 tasi siyosiy, 1 257 tasi bola huquqlari, 284 tasi ekologik hamda 725 tasi boshqa yo'nalishlarga to'g'ri keladi.

Majlisda Bolalar ombudsmanining bola huquqlari to'g'risidagi qonunchilikka davlat organlari, jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan rioya etilishi holati haqidagi ma'ruzasi ham ko'rib chiqildi.



Deputatlar – hududlarda

QIZG'IN MUNOZARALAR VA SAMARALI YECHIMLAR

Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, aholi muammolarini o'rganish, ularga ijobiy yechim topish maqsadida o'z saylov okruglarida bo'lib, fuqarolar bilan samimiy suhbat qilmoqda. Qonunchilik palatasining faoliyati, xususan, qonun ijodkorligi yo'nalishida olib borilayotgan ishlar to'g'risida ham saylovchilarga xabar berilib, ayni vaqtda qabul qilinayotgan qonun loyihalariga ularning takliflari va fikrlari o'rganilmoqda.

Daxldorlik hissi va mas'uliyat

Mamlakatimizda yoshlar siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Davlatimiz rahbarining 24-fevral kuni yoshlar bilan o'tkazgan ochiq muloqoti bu boradagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Xususan, haftaning har payshanbasi "Yoshlar kuni" deb e'lon qilingani ertamiz egalariga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir.

Ushbu tashabbuslar ijrosini ta'minlash va yoshlarning muammolarini o'rganish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

deputati Gulnora Abduravonova Andijon shahridagi qator o'quv maskanlari va mahallalarda bo'ldi.

Xalq vakili Andijon shahridagi 3-texnikum o'quvchilari bilan uchrashib, ularga yaratilgan imkoniyatlarni ko'zdan kechirdi. Muloqot davomida deputat yoshlarni kasbga tayyorlash va ularning bandligini ta'minlash masalalariga alohida to'xtaldi.

– Yoshlar masalasi doimiy diqqat markazimizda. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan yangi vazifalar zimmamizdagi mas'uliyatni ikki hissa oshirdi.



TRANSCHEGARAVIY BANKROTLIK BOʻYICHA QONUN LOYIHASI TAKOMILLASHTIRILADI

Oliy Majlis Senati aʼzolarining parlamentlararo muloqotlar doirasida xorijiy mamlakatlardagi hamkasblari bilan muntazam aloqada boʻlib turishi anʼana tusiga kirgan. Shu maʼnoda, kecha Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qoʻmitasi raisi Erkin Gadoyev MDH Parlamentlararo Assambleyasi doirasida “Transchegaraviy nochorlik va bankrotlik toʻgʻrisida”gi model qonun loyihasini tayyorlash boʻyicha ishchi guruh majlisida onlayn qatnashdi.

Onlayn muloqot

Loyihaning mazmun-mohiyati, uni ishlab chiqishda xalqaro tajribani inobatga olish masalalari hamda ilgari

oʻtkazilgan muhokamalar natijalari koʻrib chiqildi. Shuningdek, transchegaraviy bankrotlik amaliyotiga asoslangan takliflar

taqdim etilib, loyiha yuzasidan atroficha fikr almashildi.

Taʼkidlanganidek, loyiha xalqaro huquqiy yondashuvlarga tayangan holda transchegaraviy bankrotlik jarayonlarida samarali koordinatsiyani taʼminlash, aktivlarni adolatli taqsimlash hamda investorlar va kreditorlar manfaatlarining ishonchli himoyasiga qaratilgan.

Muhokama yakunida qonun loyihasini takomillashtirish boʻyicha qaror qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

TALABALAR PARLAMENT FAOLIYATI BILAN YAQINDAN TANISHDI

Kecha Xalqaro Nordik universiteti talabalari Oliy Majlis Senati faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega boʻldi.

Senat va yoshlar

Dastlab talabalarga Senatning konstitutsiyaviy vakolatlari, qonun ijodkorligi jarayonidagi oʻrni hamda hududlar manfaatlarini ifoda etish borasidagi faoliyati haqida batafsil maʼlumot berildi.

Uchrashuv davomida talabalar Senat qoʻmitalari faoliyati, yalpi majlislarni oʻtkazish tartibi, qonunlarni koʻrib chiqish va maʼqullash jarayonlari bilan ham yaqindan tanishdi. Shuningdek, ularga parlament nazorati, xalqaro hamkorlik va hududlar rivojiga oid masalalarni koʻrib chiqish mexanizmlari yuzasidan tushuntirishlar berildi.

Muloqot jarayonida talabalar oʻzlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob oldi.

“Xalq soʻzi”.



QIZGʻIN MUNOZARALAR VA SAMARALI YECHIMLAR



Yoshlarga koʻrsatilayotgan eʼtibor – ertangi yuksalishning kafolati. Bu jarayonga yuzaki emas, balki har bir yigit-qizning taqdiriga daxldorlik hissi bilan yondashishimiz shart, – dedi deputat.

Xalq vakili, shuningdek, oʻz oʻrganishlarini shahardagi “Pistamozor”, “Oʻrikzor” va “Oʻzbekiston 20 yilligi” mahalla fuqarolar yigʻinlarida davom ettirdi. Tashrif davomida “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosi tahlil qilindi.

Fuqarolar yigʻinidagi “yettilik” tizimi bilan kechgan suhbatda mahallabay ishlash, aholi muammolarini manzillii hal etish va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash masalalari muhokama markazida boʻldi.

Aholi bandligini taʼminlashda tadbirkorlikning oʻrni beqiyos. Deputat hududdagi tashabbuskor tadbirkorlar faoliyati bilan tanishib, ularning loyihalarini koʻzdan kechirdi. Muloqot davomida imtiyozli kredit mablagʻlaridan oqilona foydalanish, yangi ish oʻrinlarini yaratish va biznesni kengaytirish boʻyicha zarur tavsiyalar berildi.

Talaba yoshlar bilan uchrashuv

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari Xayrullo Gʻafforov va Gulchehra Tojiboyeva ishtirokida Namangan davlat texnika universitetida talabalar bilan uchrashuv boʻlib oʻtdi.

Deputatlar Prezidentimizning yoshlar bilan muloqotida bildirilgan muhim fikrlarga toʻxtalib, yurtimizda navqiron avlod vakillariga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratilayotganini, ularni qoʻllab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganini taʼkidladi.

Yoshlarning bilim olishi, kasb egallashi, tadbirkorlik bilan shugʻullanishi uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar haqida soʻz yuritilib, bu islohotlar Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevori ekani qayd etildi.

Shuningdek, xalq vakillari yoshlarni faollikka, tashabbuskorlikka va oʻz ustida tinimsiz ishlashga chaqirdi. Bugungi imkoniyatlardan samarali foydalangan yosh – ertangi kun yetakchisi ekani alohida urgʻulandi.

Universitet talabalari taʼlim sifati, bandlik, tadbirkorlik va yoshlarga yaratilayotgan shart-

sharoitlar yuzasidan hayotiy misollar orqali oʻz mulohazalarini bildirdi.

Uchrashuvda talabalarni qiziqtirgan savollarga deputatlar tomonidan atroficha javob berildi.

Shuningdek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining faoliyati, qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari, deputatning saylovchilar bilan ishlash amaliyoti xususida ham atroficha maʼlumot taqdim etildi. Bu esa yoshlarda qonunchilik tizimiga nisbatan ishonch va qiziqishni yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Mahalla kelajagiga qaratilgan muhim sarmoya

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Viktor Pakning Toshkent viloyati, Oqqoʻrgʻon tumanidagi saylovchilar bilan uchrashuvlari koʻtarinki ruhda oʻtdi.

Deputat dastlab Xalqobod mahallasida joylashgan 24-umumtaʼlim maktabida boʻlib, bu yerda olib borilayotgan qurilish jarayonlari bilan tanishdi. Qurilish materiallarining sifati va xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi masalalariga alohida eʼtibor qaratildi. Shuningdek, quruvchilar bilan muloqotda maktab binolari faqatgina mustahkam emas, balki oʻquvchilar uchun har tomonlama qulay, shinam hamda zamonaviy talablarga javob beradigan boʻlishi lozimligi taʼkidlandi.

Xususan, sinf xonalarining yorugʻligi, havo almashinuvi, istitish va sovitish tizimlari, sanitariya-gigiyena sharoitlari hamda imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay shart-sharoit yaratish masalalari yuzasidan aniq tavsiyalar berildi. Shu bilan birga, taʼlim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion yechimlardan foydalanish muhimligi aytili.

Deputatning fikricha, mazkur yangi maktab binosining barpo etilishi mahalla aholisi uchun katta ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlib, u nafaqat mavjud muammoni bartaraf qiladi, balki yosh avlodning sifati taʼlim olishiga mustahkam zamin yaratadi.

Mahalla aholisi bilan boʻlib oʻtgan samimiy uchrashuvlarda deputat fuqarolarni qiziqtirgan savollarga atroficha javob berdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi uchrashuvlari davom etmoqda.

“Xalq soʻzi”.

Senator soʻrovi

BOZORDAGI MUAMMOLAR SABABI NIMADA?

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasi aʼzosi Malika Qodirxonova Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengishi Raisiga Xoʻjayli tumani dehqon bozori faoliyatida qator muammolar saqlanib qolayotgani yuzasidan senator soʻrovi yubordi.

Unda, jumladan, bozorda sotuvchi va xaridorlar uchun zarur infratuzilma yetarli darajada shakllanmagani, sanitariya-gigiyena

talablariga rioya etilmayotgani, savdo faoliyati toʻliq tartibga solinmagani hamda mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish

yuzasidan yetarli darajada choralar koʻrilmayotgani taʼkidlangan.

Mazkur masala yuzasidan parlament nazorati tartibida Vazirlar Kengashi Raisidan bozorda qanday taʼmirlash va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilgani, savdo qoidalariga qay darajada rioya etilayotgani, jamoat tartibi va yongʻin xavfsizligi taʼminoti,

sanitariya-gigiyena talablari qay yoʻsinda bajarilayotgani xususida aniq maʼlumot berish soʻralgan.

Shuningdek, mavjud muammolarni bartaraf qilish boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar va bozorni yanada rivojlantirish uchun kelgusida qanday rejalar borligi yuzasidan ham tushuntirish olish nazarda tutilmoqda.

“Xalq soʻzi”.

Koʻz oʻngimizdagi oʻzgarishlar

ISLOHOTLAR INSON MANFAATLARIGA XIZMAT QILMOQDA

Qoraqalpogʻiston Respublikasi – ulkan tabiiy boyliklar, keng hudud va strategik imkoniyatlarni oʻzida mujassam etgan oʻlka. Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan ushbu hudud soʻnggi yillarda sanoat, energetika va infratuzilma yoʻnalishlaridagi yirik loyihalar hisobidan yangi iqtisodiy bosqichga koʻtarilmoqda. Nukus, Taxiotosh va Xoʻjayli kabi hududlarda amalga oshirilayotgan bunyodkorliklar ishlab chiqarish hajmini oshirmoqda.

– Agar kimdir bunga shubha qilsa, marhamat, Moʻynoqni kelib koʻrsin, – deydi Moʻynoq tumani hokimining oʻrinbosari Murat Jumabayev. – Bir vaqtlar dunyo xaritasida ekologik fojia ramzi sifatida tilga olingan ushbu hudud bugun mutlaqo yangi qiyofada namoyon boʻlmoqda. Olis ovullardagi keng va ravon yoʻllar, yangi uylar, qurilayotgan obyektlarning barchasi Moʻynoqda boshlangan yangilanishlar samarasidir.

Bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilishi uchun Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2026-yilning 20-fevralida AQSHning Vashington shahriga tashrifdan soʻng Qoraqalpogʻistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yoʻli bilan batafsil tanishdi va ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

– Aynan shu eʼtibor mintaqani barqaror rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam boʻldi, – deydi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Guljan Xalmuratova. – Bu oʻzgarishlar tasodif emas. Shu yillar davomida hududda sanoat, xizmatlar, energetika, turizm va raqamli texnologiyalar sohasida yirik loyihalar amalga oshirildi. Yangi sanoat korxonalari, IT parklar va energetika quvvatlari ishga tushirilib, iqtisodiy oʻsishning asosiy drayveriga aylandi. Eng muhimi, bu yangilanishlar odamlar hayotida sezilayapti. Ish oʻrinlari koʻpaydi, daromad manbalari kengaydi, yoshlar oʻz kelajagini shu yerning oʻzida koʻra boshladi.

Har bir oila hayotida sezilgan oʻzgarish

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-fevraldagi “Qoraqalpogʻistonda aholi uchun munosib turmush sharoitlari yaratish va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq shahar va tumanlarda jami 21 mingdan ortiq uylarning tomi

iqtisodiy oʻsishning samarasi, balki har bir oiladagi sezilarli oʻzgarishlar ifodasidir.

Toʻfonni toʻsgan “yashil qalqon”

– Orol bilan bogʻliq ekologik oʻzgarishlar ham hududdagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning muhim qismiga aylandi, – deydi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ekologiya va iqlim oʻzgarishi qoʻmitasi raisining oʻrinbosari Jubat Kushbanov.

– Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish maqsadida amalga oshirilayotgan loyihalar hududdagi ekologik vaziyatni bosqichma-bosqich yaxshilamoqda. Qurib qolgan dengiz tubida millionlab gektar yashil maydonlar barpo etilishi nafaqat tabiatni tiklash, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar va ish oʻrinlarini yaratishga ham xizmat qilmoqda.



Bu saʼy-harakatlar natijasi nafaqat ekologiyada, balki iqtisodiyotda ham koʻrinmoqda: ilgari past boʻlgan eksport ulushi hozir 30 foizga koʻtarildi. Qoraqalpogʻistonning tabiiy resurslari va qazilma boyliklari katta strategik ahamiyatga ega boʻlib, sement, qurilish toshlari, gips, shisha va boshqa xomashyo zaxiralari yirik sanoat klasterlarini tashkil etish uchun muhim omil boʻlmoqda. Bundan tashqari, hududdagi yer resurslaridan toʻliq foydalanish, iqlimga mos yangi ekin turlarini joriy etish va



chiqindilarni qayta ishlash kabi yirik loyihalar yoʻlga qoʻyilmoqda.

– Innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpogʻistonda IT universiteti, startap texnopark va intellektual markazlar tashkil etilmoqda, – deydi Qoraqalpogʻiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boʻlimi boshligʻi Begdiyar Teluov. – Bu markazlar yoshlarimizni mahalliy sanoat, agro-texnologiyalarda faol ishtirok etish va oʻz iqtidorini amaliy sinovdan oʻtkazishga undaydi. Maktablarda IT va kompyuter texnologiyalarini oʻrganish imkoniyatlari kengaymoqda: “Smart Class” sinflari va raqamli muhitdagi mashgʻulotlar oʻquvchilarni sunʼiy intellekt, dasturlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga oʻrgatadi. Ularni jamiyat va iqtisodiy taraqqiyotning faol ishtirokchilariga aylantiradi.

Yangi loyihalar yangi marralarga boshlaydi

Prezidentimizning Qoraqalpogʻistonga oid alohida farmon va qarorlari qabul qilingani hamda hududni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar Orolboʻyi aholisining ertangi kunga ishonchini yanada oshirmoqda.

Qoraqalpogʻistonning transport-logistika salohiyatini oshirish maqsadida Qoʻngʻirotda xalqaro standartlarga javob beradigan “quruq port” tashkil etish vazifasi qoʻyilgan. Ichimlik suvi taʼminoti, yoʻl qurilishi va kommunal infratuzilmani yaxshilashga katta mablagʻlar yoʻnaltirilgan.

Bu yangilanishlar mard va bunyodkor elning turmush darajasini yaxshilab, barqaror iqtisodiy oʻsishiga mustahkam zamin yaratadi.

Xususan, davlatimiz rahbarining 2025-yil 3-noyabrda “Qoraqalpogʻiston Respublikasida tuzni qayta ishlashni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori asosida hududdagi mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgan qator yirik loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan. “Kungrad Salt Free Zone” sanoat zonasini tashkil etish, “Borsa-kelmas” tuz konida qoʻshimcha infratuzilma barpo etish orqali tuzni qayta ishlash uchun qulay sharoit yaratish, kamida 50 mln. AQSH dollari miqdoridagi investitsiyalarni oʻzlashtirish, dunyo bozorida yirik investorlarni jalb qilish va yangi eksport bozorlarini oʻzlashtirish kabilar shular jumlasidan.

Shuningdek, ushbu sanoat zonasida ikki yilda 50 gektar yer uchastkasida investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda ehtiyojdan kelib chiqib, sanoat zonasini hududi 200 gektargacha kengaytirib borilishi kutilmoqda.

Turizm sohasini rivojlantirish maqsadida Orolboʻyi va Ustyurt platosida glemping zonlari, “Borsa-kelmas” tuz koni hududida turizm-rekreatsioon zonasi, Orol tarixi muzeyini modernizatsiya qilish kabi loyihalar amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bu ishlar hisobiga hududga yuz minglab xorijiy va millionlab mahalliy sayyohlarni jalb qilish rejalashtirilgan.

Gʻayrat OTAJONOV (“Xalq soʻzi”).

Joriy yil yakuniga qadar 614 ta yuk va 25 ta yoʻlovchi vagonlari ishlab chiqariladi.



YOSHlar SIYOSATI:

KELAJAKNI BUGUNDAN QURISH STRATEGIYASI

Yosh tafakkur egalari uyg'onsa, millat yanada yuksaladi. Yoshlar – iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, intellektual modernizatsiyaning bosh drayverlari. Kuni kecha Ko'ksaroyda o'tkazilgan muloqotdan butun xalqimiz, ilm-fan ahli, barcha ziyolilar, ayniqsa, yoshlarimiz unutilmas taassurotlar oldi va amaliy xulosalar chiqardi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan uchrashuvi tom ma'noda mamlakat kelajagi bilan yuzma-yuz suhbat bo'ldi. 60 mingdan ortiq yigit-qizlar studiyalar orqali ishtirok etgan ushbu anjuman Yangi O'zbekistonning demografik, iqtisodiy va ma'naviy strategiyasini aniq chiziqlar bilan belgilab berdi.

Aks sado

Tarixiy davomiylik va zamonaviy mas'uliyat

22 milliondan ziyod yoshlari bor mamlakat – bu ulkan imkoniyat, ayni paytda ulkan mas'uliyat hamdir. Ular bugun demografik kuchgina emas, strategik kapitalimiz. Navqiron avlod bizning ulkan intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatimiz.

Muloqotda tilga olinganidek, har yili 600 ming yosh mehnat bozoriga kirib kelmogda. 2030-yilga borib bu raqam 1 millionga yetadi. Agar bu katta energiya to'g'ri yo'naltirilsa, rivojlanish yanada shiddatli tus olishi aniq. Demak, yoshlar masalasi nafaqat ijtimoiy, balki milliy xavfsizlik va taraqqiyot masalasidir.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday uyg'onish davrining lokomotivi yosh avlod bo'lgan. Birinchi Rennessans – ilm-fan va tafakkur yuksalishi davri. Ikkinchi Rennessans – davlat boshqaruvi, madaniyat va ilming cho'qqisiga yetish davri. Uchinchi Rennessans poydevori yaratilayotgan ayni zamon yuksak bilim, innovatsiya va global raqobat davriga aylanmogda.

Bugungi yoshlar startap yaratmogda, xorijiy tillarni egallamogda, global universitetlarda tahsil olmogda, xalqaro maydonda sport, ilm-fan, innovatsiya jabhalarida mamlakat sha'nini himoya qilmogda. Ular endi iste'molchi emas, yaratuvchi avlod.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining tayanch ustunlari

Yangi O'zbekiston uch ustunga tayangan strategik model: ochiqlik va adolat, iqtisodiy modernizatsiya hamda intellektual jamiyat qurish. Bu uchala yo'nalishda ham asosiy ijrochi – yoshlar.

Nima uchun? Chunki yangi iqtisodiyot innovatsiyaga tayanadi. Innovatsiya esa yosh tafakkur mahsul. Raqamli transformatsiya tezkorlikni talab qiladi. Bu esa yosh avlodning tabiiy muhitidir. Global raqobatda til, texnologiya va kreativlik ustun. Bu sifatlari ham aynan yigit-qizlarga mujassam. Shu bois yoshlar va yurt kelajagi har jihatdan uzviy bog'liqdir.

Hayotimizda ko'rib, guvohi bo'lib turibmizki, davlatimiz rahbari rahnamodlarga yoshlar uchun barcha imkoniyat yaratilmogda: tadbirkorlik kreditlari, startap investitsiyalari, ta'limni dual tizimga o'tkazish, xorijiy tilni qo'llab-quvvatlash, volontyorlik va ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, kitobxonlikni davlat siyosati darajasiga ko'tarish.

Bular nimani anglatadi? Kelajakni qurish jarayoni bugundan boshlangani, eng katta investitsiya yoshlar uchun ekanini.

Yurt kelajagi uch omilga bog'liq bo'lib turibdi: xalqimizning bilim darajasi, iqtisodiy mustaqillik va ma'naviy barqarorlik. Ushbu uch omilning markazida esa yoshlar turibdi. Bugun davlat ularni qo'llab-

quvvatlamogda.

Erta ega ular davlatni boshqaradi.

Yigit-qizlarimiz bu ulug' vazifaga tayyor mi?

Imkoniyat bor, moliyaviy rag'bat bor, grantlar bor, xalqaro ehsanlar ochiq. Lekin muvaffaqiyatning yagona formulasi ham bor – mas'uliyat.

Ko'ksaroydagi muloqot davomida, ishonamizki, yoshlar o'z oldiga uch savolni qo'yishdi: Men qanday bilim egallayapman? Men jamiyatga qanday foyda keltirayapman? Men Yangi O'zbekistonda qaysi sohasida yetakchi bo'la olaman?

Oliy maqomdagi uchrashuv shuni ko'rsatdiki, yoshlar masalasi endi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasidan yuksalib, milliy strategiya darajasidagi e'tiborda.

Raqamlar ortidagi haqiqatlar

Muloqotda qayd etilganidek, yigit-qizlar iqtidori e'tiborsiz qoldirilmayapti. Natija esa quvonarli: yoshlarimiz jahon fan olimpiadalarida 66 ta oltin, 147 ta kumush, 221 ta bronza medalini qo'lga kiritdi.

Garvard, Yel, Princeton, Kolumbiya, Kornell kabi nufuzli oliyoghlarda tahsil olayotgan talaba yoshlarimiz 500 nafardan, "TOP – 100" talikdagi oliyoghlarda o'qiyotgan yigit-qizlarimiz esa 3,5 ming nafardan oshdi.

Yoshlarimiz yaratgan 63 ta startap loyihasi AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va Birlashgan Arab Amirliklari bozorlariga kirib borgan.

Yosh sportchilarimiz xalqaro arenalarda 720 ta oltin, 671 ta kumush, 854 ta bronza medalining sohibi bo'ldi. Bugun yosh tadbirkorlar yurtimizdagi biznes vakillarining 35 foizini tashkil etmogda.

Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez rivojlanayotgan davlat sifatida haqli e'tirof etilishining tasdiqidir.

Joriy yilda Toshkent shahrida Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati bosh qarorgohi tashkil etilishi, Samarqand shahrida Yoshlar parlamenti a'zolarining 12-global konferensiyasi, "Take Off" xalqaro startap sammiti va 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasi o'tkazilishi bu maqomni yanada mustahkamlaydi.

Besh ustuvor yo'nalish

Uchrashuvda kelgusidagi qator vazifalar belgilandi.

Birinchisi, tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochish. Bu – shunchaki kredit berishdan ko'ra ko'proq ishonch siyosati.

Yoshlarning uchdan biri tadbirkor bo'lishni istaydi. Demak, orzu bor. Endi unga yo'l ochish kerak.

Yangi imkoniyatlar – o'zini o'zi band qilganlar uchun kredit: 100 mln. so'mdan 300 mln. so'mgacha. Yirik loyihalar uchun 10 mlrd. so'mgacha moliyalashtirish.

Innovatsion startaplar uchun 100 ming dollargacha investitsiya. "Kelajak tadbirkori" dasturi – 7 yilgacha, 15 foizli kredit. Eng yaxshi 1 000 loyiha uchun 7 foizli imtiyozli ssuda. Bular faqatgina kredit liniyasi emas. Bu "Yoshlar iqtisodiy suvereniteti" dasturidir.

Eng muhim jihat: har hududda "Yoshlar biznes inkubatori" tashkil etilishi. Bu esa g'oyani biznesga aylantirishning to'liq ekotizimini yaratadi – marketingdan tortib eksportigacha.

Ikkinchisi, navqiron avlodning ta'lim olish va kasb-hunar o'rganishi uchun imkoniyatlarni oshirish. Bu – yigit-qizlar uchun faqat diplom olish emas, kompetensiya davri.

Mehnat bozoriga kirib kelayotganlar bois texnikumlarda dual ta'lim kengaytiriladi, oliyoghlari kabi "Spin-off" ochishga ruxsat beriladi. Startap loyihalariga 1 mlrd. so'mgacha mablag' ajratiladi.

"Work and travel" dasturi texnikum o'quvchilariga ham tatbiq etiladi. Xorijiy til sertifikatiga ega yoshlar qo'llab-quvvatlanadi. O'lis hududlardagi til markazlariga 300 mln. so'mgacha foizsiz ssuda ajratiladi.

Bu islohotlar ta'limni "nazariy jarayon"dan "foydali kompetensiya"ga aylantirishga xizmat qiladi.

Uchinchisi, ijtimoiy tashabbus va volontyorlik harakatini qo'llab-quvvatlash. Bu – faollik kapitali. 100 mingdan ortiq volontyor – bu katta harakat. Endilikda Volontyorlikni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuziladi.

Har yili 20 mlrd. so'm ajratiladi. 100 mln. so'mgacha grantlar beriladi. "Ijtimoiy faollik kartasi" joriy etiladi.

Bular nimani anglatadi? Faollik endi shunchaki maqto'v emas, balki ijtimoiy kapitalga aylanadi.

To'rtinchisi, kitobxonlik va ma'naviyat loyihalarini yanada kengaytirish. Bu – millatning ichki tayanchini mustahkamlash. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamg'armasi tuziladi. Ijodiy buyurtma olgan iste'dodli yozuvchilarga oyiga 20 mln. so'mdan haq to'lanadi, eng yaxshi 100 asar to'plami maktab va texnikumlarga yetkaziladi. Eng faol kitobxonlarga 10 mln. so'm mukofot beriladi. "Book-cafe" va kitob do'konlari ochgan tadbirkorlarga 1 mlrd. so'mgacha 7 foizli ssuda ajratiladi. Bularning bari ma'naviy bozor iqtisodiyoti modelidir.

Beshinchisi, hech bir yoshni e'tibordan chetda qoldirmaslik. "Ikkinchi imkon" loyihasi jazoni ijro etish muassasalaridan qaytganlarning jamiyatga tez moslashishiga xizmat qiladi. Ya'ni bu ular uchun jazodan – jamiyatga yangi qadam! Loyiha chuqur ijtimoiy islohotlar sirasidan. Unda yigit-qizlar 8 – 12 oylik intensiv kurslarda dasturlash, veb-dizayn, kompyuter muhandisligi, boshqa kasblar va xorijiy tillarga o'qitish orqali daromadli ishga ega bo'lishiga shart-sharoit yaratiladi.

Bu – jazoni emas, imkoniyatni markazga qo'ygan yondashuv.

Ta'lim rahbarlari oldidagi vazifalar: sifat, mazmun va natija

Bugungi kunda ta'lim tizimi rahbarlari ma'murlar emas – kelajak arxitektoralari. Prezidentimiz tomonidan yoshlar masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi ta'lim rahbarlari zimmasiga bir nechta fundamental vazifalarni yuklaydi.

Avvalo, talabalarga diplom emas, kompetensiya berish. Bugungi mehnat bozori faqatgina diplomni emas, ko'nikmalarni tan oladi. Shu bois oliyoghlarda o'quv dasturlarini real sektor ehtiyojiga moslashtirish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish, dual ta'limni qog'ozda emas, amalda ishlash shart. Bitiruvchilar bandligi monitoringini yo'lga qo'yish esa eng muhim vazifalardan.

Bugun oliyoghga necha nafar talaba qabul qilganimiz emas, qancha bitiruvchi ishli bo'lgani muhimroq.

Ikkinchidan, ta'limda motivatsion muhit yaratish. Ta'limga qiziqish buyruqlar, ko'rsatmalar bilan shakllanmaydi. Har bir rahbar o'qituvchilar nufuzini oshirish, ta'lim muhitini zamonaviylashtirib, raqamlashtirib borish, innovatsion metodlarni joriy etishga asosiy urg'u qaratishi kerak.

Talabang fikrini tinglash madaniyatini shakllantirish esa ular uchun munosib shart-sharoitlar yaratishda asosiy yo'l ko'rsatkichdir.

Ta'lim muassasalari ichki barqaror modelni o'zgartirib, takomillashtirib borishi lozim.

Zero, yoshlar ham qadrlangan joyda o'qiydi, izlanadi va rivojlanadi.

Uchinchidan, kasbga yo'naltirish – kechiktirib bo'lmaydigan masala. Ko'plab yoshlar mutaxassislikni ongli tanlamaydi, yaqinlar maslahatlari yoki qisqivi ularni qaysidir oliyogh sari yetaklaydi. Natijada esa bitiruvchida diplom bor, lekin kasbga mehr bo'lmaydi.

Shu bois maktablarda rahbarlar o'quvchilarni 7, 8, 9-sinfardan boshlab kasbga yo'naltirish tizimini kuchaytirishi zarur.

Oliyoghlarda ham qabul kvotalarini shakllantirishda mehnat bozori prognozlariga asoslanish kerak. Hududiy iqtisodiyot ehtiyojlarini inobatga olish bilan kadrlar ortiqchaligi va ishsizlik bir vaqtda yuzaga kelishining oldi olindi.

To'rtinchidan, ta'limni iqtisodiyot bilan bog'lash. Bugun yoshlar oldida yaratilayotgan kredit, startap, inkubator imkoniyatlari samarali ishlashi uchun ta'lim muassasalarida tadbirkorlik ko'nikmalarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish, talabalar startaplarini qo'llab-quvvatlash mexanizmini yaratish, "Spin-off" loyihalarini faollashtirish, xorijiy hamkorlikni kengaytirib borish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasasi ilm beradigan joydan tashqari, iqtisodiy inkubatsiya maydoniga aylinishi zarur.

Yoshlarga qaratayotgan barcha imkoniyatlarni o'zingiz uchun yuksalish maydoniga aylantiring! Davlat platforma yaratmogda. Ulardan samarali foydalanish bugunimiz va kelajagimiz – siz, tashabbuskor, bilimli va mas'uliyatli yoshlarning o'z qo'lida!

Beshinchidan, ma'naviy immunitetni mustahkamlash. Raqamli asr yoshlar uchun imkoniyat bilan birga tahdid ham olib kelmogda. Kitobxonlikni ommaviy harakatga aylantirish, tanqidni fikrlashni rivojlantirish, milliy qadriyat va global tafakkur uyg'unligini ta'minlash bilan ma'naviy immunitetni oshirish lozim.

Yangi O'zbekiston faqat texnologiya bilan emas, ma'naviy poydevor bilan quriladi. Taraqqiyot intellekt bilan birga jismoniy va ma'naviy qudrat, sog'lom turmush tarzi va sport madaniyati uyg'unligida ta'minlanadi. Bilimli avlod – sog'lom avlod bo'lsa, millat barqaror yuksaladi. "Sog'lom talaba – muvaffaqiyatli talaba" tamoyilini joriy etish sog'lom, bilimli, irodali va raqobatbardosh avlodni tarbiyalash demakdir.

Shuningdek, natija mezonlarini o'zgartirishimiz zarur. Ko'rsatkichlar son emas, sifat bilan o'lchanishi lozim, ya'ni bandlik foizi, startaplar soni, sertifikat va malaka darajasi, ish beruvchilarning baholash indeksiga e'tibor qaratish muhim.

Oltinchidan, analitika asosida boshqaruv. Qarorlarni hissiyot bilan emas, ma'lumot bilan qabul qilishimiz kerak. Mehnat bozori tahlili, bitiruvchilar monitoringi, hududiy iqtisodiy prognoz uzoqni ko'zlab ish yuritishga asos bo'ladi.

Yetinchidan, bugundek ochiqlik va muloqot. Yoshlar bilan muloqot formal emas, doimo shunday samimiy bo'lishi zarur. Chunki ular buyruqni emas, ishonchni qabul qiladi.

Sharoit, ishonch va imkoniyat

Darhaqiqat, bugun kelajagimiz vorislariga yangi-yangi imkoniyatlar berilmogda. Ular uchun imtiyozli kredit, grant, inkubator, xorijiy dasturlar joriy qiliyapti.

Ta'lim tizimi yoshlarni bu imkoniyatlardan foydalana oladigan darajada tayyorlayaptimi? Agar tayyorlay olayotgan bo'lsa, shubhasiz, uchinchi Rennessans poydevorini yaratishda katta kuch ulg'ayib kelmogda. Aksincha bo'lsa, imkoniyat va natija o'rtasida tafovutlar yuzaga keladi.

Davlatimiz rahbarining so'zlaridan anglashilgan maqsad-muddoalar shunday: bugungi ta'lim rahbarlari menejer ham, strateg ham, mentor ham, islohotchi ham bo'lishi kerak.

"Yangi O'zbekistonda xalq osuda tong erttirishi uchun rahbarning vijdoni ham, mas'uliyati ham tin olmasligi shart". Ushbu shior yangi davr rahbarlariga monand.

Yoshlarning ta'limga qiziqishi muhitdan boshlanadi. Kasb bo'yicha ish bilan ta'minlanishi esa sifatli tayyorgarlik tufaylidir. Shunday ekan, aytish mumkinki, Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim rahbarlari – millat kelajagi uchun javobgar shaxslar.

Ko'ksaroydagi uchrashuv shuni ko'rsatdiki, yoshlar siyosati bugun tizimli dasturga aylangan. Ilgari sunilgan tashabbuslar uch yo'nalishda muhim: iqtisodiy mustaqillik – kredit, investitsiya, inkubatorlar. Intellektual kapital – ta'lim, til, startap, "spin-off". Ma'naviy barqarorlik – kitobxonlik, volontyorlik, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.

Yoshlarga qaratayotgan barcha imkoniyatlarni o'zingiz uchun yuksalish maydoniga aylantiring! Davlat platforma yaratmogda. Ulardan samarali foydalanish bugunimiz va kelajagimiz – siz, tashabbuskor, bilimli va mas'uliyatli yoshlarning o'z qo'lida!

Sherzod MUSTAFOQULOV,
Xalqaro Nordik universiteti rektori, professor.



Dzyudo: "HUMO ARENA" – KATTA MUSOBAQA MEZBONI

27-fevral – 1-mart kunlari poytaxtimizdagi muhtasham "Humo Arena" sport majmuasida beshinchi bor "OTP Group Tashkent Grand Slam – 2026" turniri bo'lib o'tadi. Dzyudo bo'yicha "Katta dubulg'a" turkumiga kiruvchi, mukofot jamg'armasi 154 000 yevroni tashkil etuvchi musobaqada dunyoning kuchli polvonlari g'oliblik uchun kurash olib boradi.




O'zbekiston dzyudo federatsiyasi raisi Azizjon Komilov musobaqani o'tkazishga mas'ul tashkiliy guruh a'zolari bilan birga "Humo Arena" saroyida bo'lib, tayyorgarlik ishlari bilan tanishdi. Asosiy bellashuv maydoni, mashg'ulot zali, texnik xonalar, majmuaning barcha infratuzilmasi ko'zdan kechirildi.

Eslatib o'tamiz, O'zbekiston mezbom sifatida eng ko'p – 56 nafar (har bir vaznda 4 nafardan) sportchi bilan ishtirok etadi.

Futbol: QIT'A KUBOGI BOSHLANMOQDA

Avstraliyada 1 – 21-mart kunlari futbol bo'yicha ayollar o'rtasida Osiyo kubogi musobaqasi bo'lib o'tadi. Mazkur qit'a birinchi marta jamoa g'oliblik uchun kurash olib boradi.



Ular uch guruhga ajratilgan bo'lib, O'zbekiston ayollar terma jamoasi "B" guruhida o'z o'yinlarini o'tkazadi. Litvalik Kotrina Kulbite bosh murabbiyligidagi vakillarimiz KXDR (3-mart), Xitoy (6-mart) va Bangladesh (9-mart) futbolchilari bilan guruhdan chiqish uchun yashil maydonda kuch sinashadi.

O'zbekiston ayollar terma jamoasi so'nggi bor 2006-yilda qit'a birinchi marta qatnashgan edi.

Qilichbozlik: VAKILLARIMIZ – OSIYO ChEMPIONATIDA SOVRINDOR

Indoneziyaning Jakarta shahrida qilichbozlik bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasidagi Osiyo chempionati bo'lib o'tmogda. Unda qatnashayotgan hamayurtlarimiz sovrinli pog'onalardan joy olayotir.




Xususan, yoshlar o'rtasidagi yakkaalik sablya bahslarida yarimfinalgacha yetib borgan O'zbekiston qizlar terma jamoasi a'zolari – Ayako'z Jumamuratova hamda Fernanda Errera bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Yigitlar o'rtasida kechgan sablya bahslarida ham Alpamis O'rakbayev kumush medal bilan taqdirlangan bo'lsa, Artur Begjanov bronza medalga sazovor bo'ldi.

Sunnatilla ISLOMOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

28-FEVRAL KUNI SAYYORALAR PARADIGA GUVOH BO'LAMIZ



Sayyoralar paradi – bu noyob astronomik hodisalardan biri bo'lib, bunda ikki va undan ortiq sayyoralar bir to'g'ri chiziqda yoki bir-biriga yaqin burchak masofaga joylashadi.

Astronomik hodisa

Bunday astronomik hodisani ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruh – "kichik sayyoralar paradi", deb ataladi va unda to'rttagacha sayyora qatnashadi. Kichik sayyoralar paradi bir yilda bir marta sodir bo'lishi mumkin. Ikkinchi guruh esa "katta sayyoralar paradi", deb ataladi. Bunda beshta yoki undan ortiq sayyoralar bir-biriga yaqin burchak masofaga kelishadi. Bunday hodisa 18 – 20 yilda bir marta sodir bo'ladi.

Bundan tashqari, Quyosh tizimidagi sakkizta sayyora ishtirokidagi parad ham bo'lishi mumkin.

Bu noyob astronomik hodisa 170-yilda bir marta kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xabariga ko'ra, shu yil 28-fevral kuni oltita sayyoradan iborat paradga guvoh bo'lishingiz mumkin. Ushbu sayyoralar paradida Quyosh tizimidagi oltita sayyora, ya'ni Merkuriy, Venera, Neptun, Saturn, Uran va Yupiter ishtirok etadi.

Shu kuni quyosh ufqqa botgandan keyin mazkur sayyoralar paradini yurtimizning barcha hududidan kuzatish mumkin. Bunda sayyoralar osmon yuzasining chorak qismini egallab, paradga qatnashadigan sayyoralarni osmonning janubi-g'arbiy qismidan topish mumkin. Va ularning faqat

4 tasini oddiy ko'z bilan ko'rishning iloji bor, xolos. Bular – Merkuriy, Venera, Saturn va Yupiter. Neptun hamda Uran sayyoralari esa juda xira bo'lganligi sababli ularni ko'rish uchun maxsus optik uskunalar, ya'ni teleskop yoki durbin kerak bo'ladi.

Merkuriy va Venera Quyoshdan uzoq bo'lmaganligi sababli ular parad vaqtida ufqqa juda yaqin turadi. Bu esa ularni osmondan ko'rish imkoniyatini kamaytiradi.

Aytish joizki, Mars sayyorasi Yerdan qaralganda Quyoshdan avval ufqqa botib ketishi kuzatiladi. Shu sababli, Mars sayyorasi bu safar paradga ishtirok etmaydi.

Xullas, 28-fevral kuni quyosh botgach, janubi-g'arbiy osmonga boqib, to'layotgan yarim Oy va undan uncha uzoqda bo'lmagan Yupiterni topasiz. Uran sayyorasi oddiy ko'z bilan ko'rilmaydi, lekin u pleada – Halkar yulduz to'dasi yaqinida bo'ladi.

Eslatib o'tamiz, Halkar yulduz to'dasini qorong'i tunda oddiy ko'z bilan ham ko'rish mumkin.

Saturn, Neptun, Venara va Merkuriy bu paradga bir-biriga juda yaqinligi bilan diqqatga sazovor. Bu to'rtta sayyora Quyosh botgach, unga ergashib botishni boshlaydi va shu bois bu to'rtta sayyorani osmondan ko'rish uchun g'arbiy osmon ufqini baland binolar to'smaydigan tepalikdan kuzatish lozim bo'ladi.

Ko'pincha, ayrim insonlar sayyoralar paradi kabi astronomik hodisalarni yoki boshqa osmon jismlarini inson taqdiri va kelajagi bilan bog'lashga, turli farazlariga asoslanib bashoratlar qilishga urinadi. Biroq ilmiy nuqtayi nazaridan qaraganda, har qanday astronomik hodisa, jumladan, sayyoralar paradi ham inson hayoti, taqdiri yoki kelajagiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va ular bilan bog'liq emas.

Olimlarning fikriga ko'ra, bunday hodisalar tabiatning qonuniy va oldindan hisoblab bo'ladigan jarayonlar sirasiga kiradi va shunchaki noyob hamda qiziqarli astronomik voqea hisoblanadi. Shu sababli, sayyoralar paradini turli taxmin va xurofotlarga bog'lash o'rniqa un ilmiy jihatdan anglab, osmon go'zalligidan zavq olib kuzatish maqsadga muvofiqdir.

"Xalq so'zi".

Tojikistondagi muzeyda Amir Temur hayotiga bag'ishlangan noyob qadimiy qo'lyozma saqlanmogda.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Qonunchilik palatasi Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi

Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; ko'chibay 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2030-6784

4 720330 678004

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:

100066,

Toshkent shahri,

Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.

Navbatchi muharrir R. Bobojonov.

Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:

Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 01.10

1 2 3 4 5 6